

## TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA JANRINING TUTGAN O'RNI

Zokirova Shaxloxon Akmalxon qizi

**Qdpi stajer o'qituvchi**

**Tasviriy san'at metodikasi fani**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7799256>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'at tushunchasi, tasviriy san'atda manzara janrining tutgan o'rni to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, manzara, grafika, haykaltaroshlik, bo'rtma tasvirlar, bo'yoq.

Tasviriy san'at - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borlikni ob'yektiv mavjud sifatlari — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o'zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizmga. o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy kiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham Tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi.

Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashiga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muxim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda xalq orzuumidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumgoyaviy kurashlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi.

Manzara janrida tog' u dengizlar tasvirlanadi. Manzara, peyzaj — tasviriy san'-atning tabiat ko'rinishini aks ettiradigan janri va shu janrda yaratilgan san'at asari. Peyzaj (frantsuzcha Paysage, pays - mamlakat, joy) - tasviriy san'at janri (shuningdek, ushbu janrning alohida asarlari), unda tasvirning asosiy mavzusi birlamchi yoki u yoki bu darajada tabiat tomonidan o'zgartirilgan. kishi. Peyzaj haqidagi zamonaviy g'oyalar asrlar davomida uni tasvirlashning badiiy texnikasi rivojlanishi bilan shakllangan. Peyzaj ishida ko'rinishning istiqboli va tarkibini qurish, atmosfera holatini, havo va yorug'lik muhitini o'tkazish, ularning o'zgaruvchanligiga alohida ahamiyat beriladi. Peyzaj - rasmning nisbatan yosh janri. Asrlar davomida tabiat tasvirlari faqat qahramonlarning yashash joyining tasviri sifatida, piktogramma uchun manzara sifatida, keyinchalik janr sahnalari va portretlar uchun chizilgan. Asta-sekin, chiziqli va havo istiqbollari, chiaroscuro, proportsionallik, umumiy kompozitsiya, rang, tasvir reliefi, tabiiy ko'rinishlar haqidagi ilmiy va eksperimental bilimlarning rivojlanishi bilan dastlab syujet kompozitsiyasining teng huquqli a'zosi bo'lib, so'ngra tasvirning markaziy predmetiga aylandi. Peyzaj rasmining gullab-yashnashi XIX -asrda naychali bo'yoqlar ishlab chiqarish usulining ixtiroi bilan bog'liq bo'lgan plener landshaftining rivojlanishini belgilab berdi. Rassom o'z

ustaxonasidan uzoqda, tabiatda, tabiiy yorug'lik bilan ishlashi mumkin edi. Bu motiv tanlashni ancha boyitdi, san'atni tomoshabinga yaqinlashtirdi va ijodkorga bevosita hissiy taassurotlarini badiiy asarga aylantirish imkonini berdi.

Peyzaj odatda ochiq maydonni tasvirlaydi. U, qoida tariqasida, suv va yoki yer yuzasining tasvirini taqdim etadi. Yo'nalishiga qarab - o'simliklar, binolar, jihozlar, meteorologik (bulut, yomg'ir) va astronomik (yulduzlar, quyosh, oy) shakllanishlar. Ba'zan rassom obrazli qo'shimchalardan (odamlar, hayvonlar), asosan nisbatan o'tkinchi syujet vaziyatlari shaklida ham foydalanadi.

Manzarada shahar ko'rinishi yoki me'moriy majmualar (me'moriy manzara), dengiz ko'rinishlari (marina) va hokazolar ham tasvirlanadi. Atrof muhitni tasvirlayotgan rassom unda o'zi va zamondoshlarining tabiatga munosabatlarini ifoda etadi, shu jihatdan yaratilayotgan asar his-tuyg'u va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tomonidan atrof dunyoni ma'naviy (qisman amaliy) o'zlashtirishning turli tomon va darajalarini aks ettirgan o'zida katta ma'no tashiydi. Tabiat tasvirlari tabiat, uning qonuniyatlari haqidagi tasavvurlar (olam gumbazi, oy, quyosh, yulduzlar, dunyo mamlakatlarining shartli belgilari) yuzaga kelgan payt (neolit)dan o'z ifodasini topgan. Qadimgi Sharq madaniyatida tabiatni yaxlit holda ko'proq aniq xususiyatlarga ega bo'la boshlagan hodisalar muhiti degan tasavvur shakllangan. Miloddan avvalgi XVI—XV asrlar qadimgi Sharq(Bobil, Ossuriya, Misr) devoriy rasmlari va bo'rtma tasvirlaridagi jang , ov va boshqa lavhalarda manzaradning ayrim bo'laklari mavjud. Misr devoriy rasmlari va bo'rtma tasvir (relyef)larida ilk bor bezaklar ritmi orqali hayvonot, o'simlik va tabiiy hodisalarning ishonarli ta'sirchan birligiga erishilgan. Yunon san'atida, odatda, manzara tarkibiy qismlarini inson tasviridan ajratib bo'lmaydi. Yevropa o'rta asrlar san'atida manzara (ayniqsa, shahar va alohida bino ko'rinishlarida), odatda, voqea sodir bo'layotgan joyning fazoviy qurilishini aniqlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Musulmon Sharqi mamlakatlarida XIII—XIV asrlardan kitob miniatyuralarida manzaraga ko'proq o'rin berilgan. Yashnab turuvchi sof bo'yog'i va gilamday tekis sathli kom-pozitsiyasi, sehrli bog' tasavvurini yaratuvchi tabiati, har bir bo'lak jo'shqin ko'tarinkiligi bilan diqqatga sazovor. Hindiston (ayniqsa, Boburiylar davri miniatyura maktabi asarlarida), Hindixitoy, Indoneziya (afsonaviy va epik mavzudagi relyeflaridagi tropik o'rmonlar obrazi) o'rta asrlar san'atida landshaft detallari, ayniqsa, jo'shqin qudratga ega. Manzara mustaqil janr sifatida Xitoyning o'rta asrlar tasviriy san'atida o'ta muhim o'rin tutadi. M.ga tabiatning doimo yangilanib turuvchi olam qonunining ko'rgazmali umumlashmasi sifatida qaralgan (bu "tog'lar — suvlar" manzara turida o'z ifodasini topgan). Yaponiya san'ati (XII—XIII asrlar)da bezak san'atida bezakdagi eng muhim ohanglarni alohida ajratib manzara olishga moyilligi bilan diqqatga sazovor. G'arbiy Yevropa san'atida M.ga asar ruhiy olamining muhim qismi sifatida qaralgan. Shartli zamin (tilla yoki naqshli) manzara bilan almasha borgan (italyan Jotto, A. Lorensetti, XIII-XIV asrlar; niderland aka-ukalar X. va Ya. Van Eyk, XV asr 1-yarmi va boshqalar). Uyg'onish davri rassomlari chizgi va etyudlarida olam haqidagi ratsional qonunlarga amal qilib, manzaraga real voqealar muhiti sifatida qaraganlar (italyan Leonardo da Vinchi, J. Bellini, Titsian; nemis A. Dyurer, M. Nithardt va boshqalar), ayni shu davrda manzaraning alohida janr sifatida shakllanishiga (avvalo grafikada) zamin yaratildi.

XIX asr rus manzara janrida romantik an'analar yetakchi rol o'ynagan bo'lsa (F. Matveyev, M. Vorobyev, I. Ayvazovskiy), XIX-asr 2-yarmida peredvijniklar harakati bilan bog'liq realistik manzara janri gurkirab o'sdi (I. Shishkin, A. Savrasov, I. Levitan va boshqalar). XX asrda Yevropa va Amerikada texnika olamini tabiatga qarshi qo'yuvchi industrial manzara keng tarqaldi. Realistik manzara ham jadal rivojlandi, unda go'zal tabiat o'ziday tabiiyligicha tasvirlanadi.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xududida o'rta asrlar san'atida musulmon Sharqi mamlakatlarida bo'lgani kabi naqsh — bezak asosiy o'rinni egallagan. Girih, islomiy naqshlarda uslublashtirilgan o'simlik bo'laklari ko'p ishlatilgan. O'rta Osiyoda shakllangan miniatyura maktablari vakillari qo'lyozma kitoblarga ishlagan rayem va bezaklar bo'yoqlarining uyg'unligi, zamin sifatida manzara va me'morlikka e'tiborning kuchliligi bilan diqqatga sazovor. O'rta Sharq san'ati, jumladan, Hirot, O'rta Osiyo miniatyura san'atida manzara yuksak darajada namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzodning mo'jaz asarlarida manzara tabiat ko'rinishi mahorat bilan ishlangan. Uning davomchilari Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Nodir Samarqandiy va boshqa ijodida ham manzara ko'rinishlari muhim o'rin egallaydi. O'zbek manzara janrining haqiqiy rivojlanishi XX asrga to'g'ri keladi. Shu davrda dastgoh san'atida manzaraning nodir namunalari yaratildi. P. Benkov, O'. Tansiqboyev, N. Karaxan, R. Temurov, R. Ahmedov, N. Qo'ziboyev, A. Mirsoatov va boshqa bu sohada samarali ijod qildilar va o'zbek tasviriy san'atida manzara janri rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Xulosa qilib aytganda, manzara janri ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, uning tasviriy san'atimizda tutgan o'rni beqiyosdir.

### References:

1. S.F. Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012, 8-7 bet.
2. Zarina, Muhammadiyeva, and Qayumova Sabina. "THE PRACTICAL IMPORTANCE OF TYPES AND GENRES OF FINE ARTS IN HUMAN LIFE." *Universum: технические науки* 11-5 (92) (2021): 90-91.
3. Boymetov B. Qalamtasvir asoslari. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma. T., 2000-yil
4. Boymetov B. Portret qalamtasviri. Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qollanma. T., 2001-yil.
5. Boymetov B. Qalamtasvir. Antik davr gips bosh rasmini chizish. Pedagogika institutlari va universitetlarining maxsus sirtqi bo'lim talabalari uchun o'quv qo'llanma. T., 2003-yil.
6. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. T., 2004-